

# **YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH**

## **TAMOYILLARI**

***Alqorov Qodir Xolmatovich***

*A.Қодирий номидаги ЖДПИ, Технологик таълим кафедраси ўқитувчиси,*

*e-mail:mr.qodir@bk.ru*

**Annotation:** Mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash komissiyasi tomonidan yo‘l – transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan ko‘plab tadbirlar ishlab chiqilayotganligiga qaramasdan respublikamiz hududida sodir etilayotgan yo‘l – transport hodisalarining soni yuqoriligidcha qolmoqda.

**Kalit so‘z:** muhim, murakkab, qoida, transport, yo‘l, hodisa, nazorat.

\*\*\*

**Аннотация:** Несмотря на то, что Комиссия по безопасности дорожного движения в нашей стране разрабатывает ряд мер по предотвращению дорожно-транспортных происшествий, количество дорожно-транспортных происшествий в стране остается высоким.

**Ключевые слова:** важное, комплекс, правило, транспорт, дорога, происшествие, контроль.

**Annotation:** Despite the fact that the Commission for Road Safety in our country is developing a number of measures aimed at preventing road accidents, the number of road accidents in the country remains high.


**Key words:** important, complex, rule, transport, road, incident, control.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mamlakatdagi qishloq xo‘jaligi va aholining transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir.

Hammamizga ma’lumki mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Respublikamizda avtomobilsozlik sohasini rivojlantirishga qaratilgan muhim va murakkab ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Respublikaning transporti ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoriga kiritilishi respublika yo‘lida har xil transport, ayniqsa yengil avtomobil turlarining ortishiga olib kelinmoqda.

Avtomobilsozlik o‘zining shubhasiz ijobiy natijalarini berish bilan birga, ayrim salbiy holatlirning o‘sishiga, shu jumladan yo‘l transport hodisa(YTH)lar sonining


o'sib ketishi kuzatilmoquekda, buning oqibatida xalq xo'jaligiga juda katta zarar yetkazmoqda.



Respublikamiz bo'yicha yillik YTH larning 55-70 % i shahar miqyosiga to'g'ri kelishi, shahardagi harakatning tig'izligini, shahar miqyosida sodir bo'lgan umumiy YTHlarning 18-25 % i chorrahalarda asosan to'qnashuv sodir bo'lganligini, 79-82 %i chorrahalardan tashqarida bo'lganligi fikrimizning dalilidir.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda YTH larning asosiy sababini ya'ni har 5 ta YTH dan 3 tasi yoki umumiy YTH ning 60 % i bevosita piyodalar ishtirokida yoki piyodalar aybi bilan sodir bo'lganligi aniqlandi.

Respublika yo'l harakati xavsizligini ta'minlash komissiyasi tomonidan yo'l - transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan ko'plab tadbirlar ishlab chiqilayotganligiga qaramasdan respublikamiz hududida sodir etilayotgan yo'l - transport hodisalarining soni yuqoriligidcha qolmoqda.



**"Yo'l"** - transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalilaniladigan yer mintaqasi yoxud sun'iy inshoot yuzasi.

Yo'l - transport hodisalarining soni yildan yilga ko'payib ketayotganligi viloyatlar, shahar va tumanlar hokimliklari huzuridagi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash komissiyalar tomonidan yo'l - transport hodisalarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rileyotganligini, idora va tashkilotlarda o'tkazilayotgan tadbirlarning samarasiz ekanligini, rahbarlarning ushbu yo'nalishidagi ishlarga ma'suliyatsizlik va e'tiborsizlik bilan qaraliyotganliklarini ko'rsatmoqda.

Jumladan, joylarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tadbirlarining yetarli darajada olib borilmagan, yo‘l - transport hodisasi sodir etilishi sabablari chuqur o‘rganilmagan hamda qoidabuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilmagan, rahbarlar tomonidan ushbu masalalarga e’tiborsizlik va mas’uliyatsizlik bilan qaralgan, haydovchilar ustidan nazorat susaytirib yuborilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash yo‘l - transport hodisalarining oldini olish, yo‘l harakati ishtirokchilari intizomini mustahkamlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- hokimlik, vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan respublika komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilib borish va ijro intizomini buzgan rahbarlarni navbatdagi komissiya yig‘ilishlarida muhokama qilishni yo‘lga qo‘yish hamda ularga nisbatan intizomiy jazo choralar ko‘rilishi;

- respublika komissiyasida ishchi guruqlar tuzilib, vaziyatdan kelib chiqqan holda ko‘plab yo‘l - transport hodisalari sodir etilayotgan hududlar, vazirlik idora va tashkilotlardagi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash ishlari hamda komissiyalar faoliyatları o‘rganib borilishi va natijalari yig‘ilishlarda navbatdan tashqari muhokamaga qo‘yilishi;

- har bir transport vositasining texnik holatini, yo‘lga chiqishi, yo‘nalish bo‘yicha harakatlanishi, qaytishi ustidan nazorat qilib borilishi, buning uchun bevosita tegishli tashkilotlarda maxsus reydlar muntazam ravishda o‘tkazib turilishi;

- avtoxo‘jaliklarda transport vositalarini saqlash, ayniqsa, haydovchilarning ish vaqtiga tugagandan so‘ng hamda dam olish kunlari yo‘lga chiqishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha rahbarlar mas’uliyatini oshirish;

- yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi shaxsiy transport vositalarining xavfsiz harakatlanishiga erishish uchun ularning ishini aniq tadbirlar asosida tashkil etish, transport vositalarini texnik, haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib borish, harakatlanish jarayonini zudlik bilan tartibga solish hamda ularning faoliyatini o‘rganish va nazorat qilish bo‘yicha maxsus reydlar uyushtirib borish;

- tegishli idora va tashkilotlar tomonidan ichki xo‘jalik yo‘llarining me’yoriy talablarga javob berishini ta’minlash, kuzgi va bahorgi ko‘riklar natijalari bo‘yicha

DAN idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar talablarining to‘liq bajarilishiga, joylardagi komissiyalarda ko‘rik natijalarini muhokamaga etilishiga, kamchilik va nuqsonlarning bartaraf qilinishiga e’tibor berish, ushbu yo‘llar mahalliy hokimliklar ixtiyoriga berilib, ularni saqlashga kerakli miqdordagi mablag‘ ajratilishi masalasi ko‘rib chiqilishi;

- piyodalar o‘rtasida tartib – intizomni mustahkamlash, doimiy ravishda mahallalarda, ish joylarida, o‘quv muassasalarida, maktablarda va aholi o‘rtasida yo‘l harakati qoidalarini o‘qitish, targ‘ib hamda tushuntirish ishlarini olib borilishini ta’minlab, nazoratni kuchaytirish;
- haydovchilar tayyorlaydigan o‘quv tashkilotlari tomonidan o‘qitish sifatini, haydovchilarning malakasini oshirishga e’tiborni kuchaytirish;
- vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan tasarrufidagi avtokorxonalarda haydovchilarga yangi tahrirdagi «Yo‘l harakati qoidalari»ni o‘qitish bo‘yicha qo‘sishmcha mashg‘ulotlar o‘tkazilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish.

Ushbu bandlardagi tadbirlarni amalga oshirish bo’lishi va kutilishi mumkin bo’lgan yo‘l-transport hodisalari bo’lmasiligini kafolatlaydi, deb o’ylaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Yo‘l harakati qoidalari” O’z. Res. IIV nashriyoti. T. 2001 y.
2. “Yo‘l harakati xavfsizligi” O’z. Res. IIV nashriyoti. T. 2001 y.
3. A.V. Livinis. “Yo‘l harakati xavfsizligi asoslaridan masalalar va mashqlar to’plami”. Toshkent. “O’qituvchi”. 1985 yil